

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'rni, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 472,1 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 548,4 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,6 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati

• 103,6 %

Hajmning
o'sishi

• 548,4
mlrd. so'mga

Xizmatlar hajmi


• 4472,1
mlrd. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm

Mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning noyabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 89,9 mlrd. so'mga o'sdi va 445,6 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun:

O'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 110,9 mlrd. so'mga o'sgan va 392,8 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil X diskret (oktabr) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil XI diskret (noyabr) oyining hajmi 62,4 mlrd. so'mga kamaydi.

Taqqoslash uchun:
2019- yilning X va XI diskret oylari o'rtaqidagi farqi 31,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	4472,1	103,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	212,7	114,3
Moliyaviy xizmatlar	1106,0	127,8
Transport xizmatlari	765,9	108,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	749,6	107,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	119,9	78,4
Savdo xizmatlari	1364,3	93,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	108,4	90,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	216,4	107,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	71,9	94,8
Ijara xizmatlari	92,0	90,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	112,6	99,9
Shaxsiy xizmatlar	125,4	98,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	64,0	73,8
Boshqa xizmatlar	112,6	82,6

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 30,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (24,7 %), transport xizmatlari (17,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlari bo'yicha (4,9 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,4 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – 1,6 %, ijara sohasidagi xizmatlar - 2,1 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hissasi 2,4 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (27,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (14,3 %), shuningdek, transport xizmatlarida (8,6 %) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da




Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari hajmi sezilarli darajada (26,2 % ga) pasayishi qayd etildi.

Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (21,6 % ga), boshqa xizmatlar (17,4 % ga), ijara xizmatlari (9,7 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (9,3 % ga), savdo xizmatlari (6,2 % ga), sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (5,2 % ga), shaxsiy xizmatlari (1,9 % ga) pasayish kuzatildi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 17,1 %.

Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-noyabr oylarida)



2020-yil yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 44,5 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'r-satilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 55,5 % ni tashkil etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinni tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi 30,5 % ni tashkil etdi, bu esa 1 364,3 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylajmi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 84,2 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 10,9 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiylajmi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1106,0 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi 796,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 21,3 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 20,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 309,9 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 27,8 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati 183,3 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish va shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 95,0 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,3 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 0,7 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



2020- yilning yanvar- noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 212,7 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 114,3 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 99,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,1 %, boshqa aloqa xizmatlari – 0,1 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,1 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari - 0,3 % dan tashkil etdi.

2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, telekommunikatsiya xizmatlarining 14,6 % ga yuqori o'sishi kuzatilmogda.

Taqqoslash uchun: 2019- yil yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 216,4 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil etdi.




Dastlabki ma'lumotlar

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 78,4 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 119,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiylajmi hajmidagi ulushi atigi 2,7 % ni tashkil etdi.




2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 15,7 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Dastlabki ma'lumotlar

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 89,0 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 11,0 % ni tashkil etdi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu -

sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 71,9 mld. so'mni tashkil etdi.



Xizmatlar umumiyo hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,8 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, zamонави O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmogda.

Dastlabki ma'lumotlar

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar- noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3211,4 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,2 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi– 3211,4 ming so'm

O'sish sur'ati % da, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan - 101,4 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan - 333,5 ming so'mga

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligи va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
soni - 11831 birlikda

O'tgan yilning mos
davriga nisbatan
o'sish sur'atlari -
117,9 %

Ularning umumiyligi
sonidagi ulushi -
57,1 %



**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning
1- dekabr holatiga
ko'ra, xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan kor-
xona va tash-
kilotlarning ulushi -
57,1 %, sanoat -
16,6 %, qurilish -
16,5 % ga yetdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 9,8 % ga to'g'ri keldi.

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (40,7 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,3 % ga yetdi.


Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,8 % ga teng bo'ldi.

Savdo – 40,7**Boshqa turdag'i xizmatlar – 39,3****Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 10,6****Tashish va saqlash – 5,3****Sog'liqni saqlash – 2,3****Axborot va aloqa – 1,8**

Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 256,8 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 38,0 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,7 %, tashish va saqlash - 5,9 %, axborot va aloqa - 3,1 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,0 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 40,3 % ni tashkil etgan.

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1796 taga ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, ularning soni 1608 taga ko'paygan.

Dastlabki ma'lumotlar

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 34,2 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1226 taga ko'paydi va 4810 taga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 16,3 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 30 taga ko'paydi va 214 tani tashkil etdi.

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 73,0 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 69,0 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1720 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 8642 tani tashkil etdi va o'sishi esa 24,8 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligi sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 49,6 % ga yetdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 49,7 % ekvivalentida qayd etildi.

Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

72-221-51-27